



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE**  
**REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (998) 71-203-32-23, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz



2023-yil 5-iyun  
3/15-2023-15-son

**Oliy ta’lim muassasalari rektorlari,  
filiallar direktorlariga**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Ichki ishlar vazirligi, Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tomonidan 2023-yilning 23-iyun kuni “Yangi O‘zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Mazkur ilmiy-amaliy konferensiyaning axborot xati ilovaga muvofiq yuborilmoqda.

Ushbu ilmiy-amaliy konferensiyada oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy izlanuvchilarining ishtirok etishi tavsiya etiladi.

**Ma’lumot uchun:** Anjumanga maqola yuborishning so‘nggi muddati: 2023-yil 15-iyun (manzil: Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Islom Karimov ko‘chasi, 45 uy O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi), e-mail: [youthconference.uz@gmail.com](mailto:youthconference.uz@gmail.com).

Ilova elektron shaklda.

**Vazir o‘rinbosari**



**S.Buzrukxonov**

**“YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI  
AMALGA OSHIRISH STRATEGIYASI: MAVJUD VAZIYAT VA  
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”**

**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**

**AXBOROT XATI**

*(2023-yil 23-iyun, Toshkent sh.)*

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2023-yil 17-maydagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-son O‘zbekiston Respublikasi qonunini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1-son majlis bayonining 8-bandiga muvofiq Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Ichki ishlar vazirligi, Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tomonidan Toshkent shahrida **2023-yil 23-iyun** kuni **“Yangi O‘zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari”** mavzusida ilmiy-amaliy konferensiyasi tashkil etilmoqda.

Konferensiya maqsadi O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati borasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili, “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son Prezident qarori ijrosini ta‘minlash, yoshlar bilan ishlashning “mahallabay” tizimi, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, har tomonlama yetuk shaxs etib tarbiyalash, yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ma‘naviy rivojlanishini ta‘minlash yo‘nalishdagi muammo va yechimlarini soha mutaxassislari, yetakchi olimlar, yosh tadqiqotchi-izlanuvchilar ishtirokida muhokama qilish, natijalarni baholash, ilg‘or tajribalarni O‘zbekiston amaliyotida qo‘llash bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya o‘z ishini **2023-yil 23-iyun kuni soat 10:00** da boshlaydi (Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Islom Karimov ko‘chasi, 45 uy).

**Konferensiya quydagi yo‘nalishlarda tashkil etiladi:**

1. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning yangi mexanizmlari: milliy va xorijiy tajriba;
2. Yoshlarga munosib mehnat sharoitlarini yaratish, ularning iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish;
3. Yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash;
4. Yosh kadrlarni tayyorlashda yangicha yondashuvlar: global tendensiya va milliy an‘analar;
5. Yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va sportni ommalashtirish.

## **Konferensiya taqdim etiladigan ilmiy tezislarni rasmiylashtirishga talablar:**

1. Ilmiy tezislar o'zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi. Ilmiy tezislarning hajmi 4 betdan ko'p bo'lmagan holda, elektron variantda ([youthconference.uz@gmail.com](mailto:youthconference.uz@gmail.com) elektron pochta manzili orqali) taqdim etiladi.

2. Ilmiy tezislarning MS Word dasturi matn redaktorida, 14 o'lchamli Times New Roman shriftida, 1,5 intervalda, yuqori va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, qoldirilgan holda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak. Ushbu talablarga javob bermaydigan ilmiy tezislarning qabul qilinmaydi. Matnda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun javobgarlik muallif zimmasida bo'ladi.

3. Mavzu (*bosh harflar bilan*), bir interval pastdan mualliflar F.I.O., lavozimi, keyin tashkilot nomi va elektron pochta manzillari ko'rsatiladi.

**Mualliflik badali:** konferensiya to'plamini nashr qilish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi va vazirlik huzuridagi Ekspertlar komissiyasi tomonidan ma'qullangan maqolalar chop ettirilib, to'plam maqola egalariga bepul taqdim qilinadi.

Taqdim etilgan ma'lumotlar va ularning ilmiy-nazariy asoslanishi va maqolaning uslubiy jihatlari uchun muallif(lar) javobgardir.

**Ilmiy tezislarning 2023-yil 15-iyungacha qabul qilinadi,** tashkiliy qo'mita berilgan muddatdan *kech tushgan, konferensiya mavzusi va belgilangan talablarga mos kelmagan ilmiy maqolalar qabul qilinmaydi.*

**Konferensiyani o'tkazish uchun ma'sul:** O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Ichki ishlar vazirligi, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti.

## **Ishtirokchilarni ro'yxatdan o'tkazish va qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun ma'sullar:**

O'rozaliyev Oybek, – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi mas'ul xodimi: (94) 609014 41

Eshqulov Mardon, – Yoshlar siyosati va sport vazirligi mas'ul xodimi:

Tel: (99) 898 77 19

Jabborov Elmurod – Yoshlar ishlari agentligi mas'ul xodimi:

Tel: (99) 858 81 14

Z.Luxmanova, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti mas'ul xodimi: (91) 779 69 75

Murojaat uchun telefon: 998 71 232 61 23